

## **“Demografiya va mehnat bozori” elektron ilmiy-ommabop jurnalida maqolalar chop ettirish tartiblari**

*Jurnal maqsadi* demograf-olimlar, doktorantlar, yosh tadqiqotchilar, oliygohlarda ta’lim olayotgan bakalavr va magistrning ilmiy salohiyatini sayqallash, ularning diqqatini xorijiy davlatlar hamda respublikamizda kechayotgan demografik tendensiyalar va jarayonlar haqida tezkor axborot bilan qurollantirish, bu sohadagi ilmiy-amaliy yutuqlar va muammolarga jalb etish, shuningdek, aholining demografik rivojlanish sohasida olib borilayotgan dolzarb ilmiy tadqiqot va izlanishlar natijalarini keng ommaga hamda ilmiy munozaralar yuritish.

*Ilmiy maqolalarni qabul qilish va nashr ettirish.* Maqolalar tahririyatga bevosita murojaat yoki elektron manzilga yuborish yo‘li orqali qabul qilinadi.

Maqolalar o‘zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi.

Qabul qilingan maqolalar tahririyat tomonidan dastlabki texnik ekspertiza va taqrizdan o‘tkaziladi.

Ilmiy maqolalarni nashr etish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar har bir maqola uchun to‘lov evaziga amalga oshiriladi.

*Qabul qilingan materiallarni chop etish muddatlari.* Yil davomida 6 ta son, ya’ni har 2 oyda 1 ta son nashr etilishi rejalashtirilgan.

### ***Tahririyatga topshiriladigan materiallarga belgilangan texnik talablar:***

1. Ilmiy maqolalarning hajmi 8 betdan kam va qoida tariqasida 20 betdan ko‘p bo‘lmasligi.

2. Maqolaning asosida matnning kamida 75% muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim.

3. Maqolaning matni, formula va jadvallarni Microsoft Word dasturidan foydalanib tayyorlash kerak.

4. Matn parametrlari: barcha tarafdin 2 sm dan standart hoshiyalar qolishi kerak; shrift Times New Roman, kegel – 14; satrlar orasidagi interval – 1,5 sm.; matni kengligi bo‘yicha tekislash; abzas 1,25 sm; sahifani tanlash uchun joylashuv – kitob sahifasi. Barcha rasmlar va jadvallar raqamlanishi, nomlanishi hamda manbasi ko‘rsatilishi shart.

### ***Ilmiy maqola quyidagi tarkibiy tuzilishga ega bo‘lishi talab etiladi:***

1. Maqolaning to‘liq nomi (*o‘zbek, rus va ingliz tillarida*).

2. Maqola muallif(lar)i ismi-sharifi, ilmiy unvoni, darajasi, ish (ta’lim) joyining nomi, egallab turgan lavozimi (*o‘zbek, rus va ingliz tillarida*) qisqartmalarsiz yozilishi, elektron pochta manzili va telefon raqami, ORCID ID raqami. Mualliflar bir nechta bo‘lsa ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart.

3. Annotatsiya (*o‘zbek, rus va ingliz tillarida*).

4. Asosiy tushunchalar (*o‘zbek, rus va ingliz tillarida*).

5. Material matni tuzilishi quyidagi qismlarga ajratilishi, har bir bo‘limi uchun sarlavhalar berilishi kerak (IMRAD):

Kirish.

Adabiyotlar tahlili.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tahlil va natijalar muhokamasi (asosiy qism).

Xulosa va takliflar.

6. Maqolada albatta mavzuning dolzarbligi, ilmiy ahamiyati, erishilgan natijalari va xulosalar ifodalanishi shart.

7. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ketma-ketlikda raqamlanishi kerak. Matnda tegishli manbaga beriladigan iqtiboslar to‘rtburchak qavslar ichiga olinishi kerak (masalan [1]). Avtomatik tarzda iqtiboslarni raqamlashga ruxsat etilmaydi. Foydalanilgan adabiyotlar soni 5 yil davomida chop etilgan ilmiy adabiyotlar va xorijiy adabiyotlar bo‘lishi maqsadga muvofiq.

**Majburiyat.** Tahririyat tomonidan taqrizdan o‘tgan va nashrga tavsiya etilgan maqolalarda keltirilgan dalillar va ma’lumotlar uchun muallif javobgar hisoblanadi. Tahririyat taqrizdan o‘tmagan maqolalar qaytarilishi va unga izoh berish majburiyatini olmaydi.

***Murojaat uchun:***

Telefonlar: (+998) 50-005-45-69, 71-239-28-95.

Telegram: [https://t.me/demografiya\\_mehnatbozori](https://t.me/demografiya_mehnatbozori)

Elektron pochta manzili: [demografiya\\_mehnat\\_bozori@mail.ru](mailto:demografiya_mehnat_bozori@mail.ru)

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o‘g‘li

Telegram kanal: [https://t.me/mehnat\\_2024](https://t.me/mehnat_2024)

***Yuridik manzil.*** 100066, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy, bosh bino 14-qavat 14-03 xona.